

OFTALMOLOGIK KASALLIKLARNING NOZOLOGIK TUZILISHI**НОЗОЛОГИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ОФТАЛЬМОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ****NOSOLOGICAL STRUCTURE OF OPHTHALMIC DISEASES**

Xamrayeva Lola Salimovna,
Sattorova Zulxumor Abdixashimovna,
Sodiqjonov Jahongir Shuxratjon o'g'li
E-mail:lola251167@mail.ru
E-mail:zulhumorsattarova@gmail.com

Ota-onalar uchun har qanday yoshdagi bola himoyasiz ko'rinadi, shuning uchun kattalar ularni barcha qiyinchiliklardan himoya qilishni xohlashadi. Afsuski, inson qudratli emas va ba'zi kasalliklar bolalarning hayoti juda ham xavfli. Ba'zi patologiyalar tez o'tib ketib, keyingi hayotga ta'sir qilmasa, boshqalari esa bolaning keyingi hayotiga sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday patologiyalarning bolaning tanasiga ta'sirini kamaytirish uchun siz kasallikni erta bosqichlarda aniqlab, darhol davolanishni boshlashingiz kerak. Mana shunday kasalliklar sirasiga oftalmologik kasalliklarni kiritmasdan ilojimiz yo'q. Agar bolada erta davrdan ko'rish muammolari bo'lsa, bu kelajakda bolaning rivojlanishining kechikishiga olib kelishi mumkin. Oftalmologik kasalliklarni asosiy qismini: ko'z jarohatlari, g'ilaylik, katarakta, glaukoma, retinopatiyalar, miopiyalar, qovoq kasalliklari va boshqalar tashkil qiladi. Oftalmologik amaliyotda kasalliklarning 20% dan ortig'i shikastlanishga bog'liq bo'lib, jarohatlar orbitaga va ko'z olmasiga zarar yetkazadi. Ko'z jarohatidan keyin 13% hollarda ko'zning subatrofiyasi rivojlansa, 25% - anoftalmga olib kelishi mumkin. Bolalar travmatizmining xususiyatlariga keladigan bo'lsak, ko'ruv a'zosining shikastlanishi 10% bolalarda ko'zning turli patologiyalariga olib kelsa, 30-60% holatlarda bir yoki ikki tomonlama ko'rlikka olib kelishi mumkin. Bolalarda eng muhim jarohat omillari: pichoqlar, o'qlar, tosh-tayoqlar, xokkey tayoqchalari, nayzalar, mixlar, simlar va boshqalardir. Bunday kasalliklar sirasiga glaukoma kasalligi ham alohida e'tibor talab qiladi. Sababi shundaki: bolalarda glaukomaning tarqalishi 1:10000-1:12000 holatda uchraydi. Ko'z patologiyalari tarkibida uning o'ziga xos ulushi 0,1% ga yetadi. Glaukoma kasalliklarining 75% dan ko'pi ikki tomonlama. Shu bilan birga, glaukoma bo'lgan bolalar, ko'r va ko'r bo'lmagan maktab o'quvchilari orasida 5dan 15% gacha. Bolalardagi ko'rlik tarkibida ushbu patologiyaning ulushi 2 dan 15% gacha o'zgarib turadi. Rossiya Federatsiyasida bolalar ko'zi ojizligi tarkibida tug'ma glaukoma 10,1%, ni tashkil etadi.

Tug'ma katarakta ko'zning rivojlanishidagi barcha anomaliyalarning 60% ni tashkil qilsa, ko'zning jarohatlanishi esa gavharning mexanik shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Buning natijasida jarohardan keying katarakta rivojlanadi. Moskvadagi bolalar oftalmologlarining hisobotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, so'nggi 15 yil ichida ko'zida yallig'lanish kasalliklari bo'lgan bolalar soni 5-6 marta oshdi. 58 da % da ko'z sirtining virusli kasalliklari uchrasa, ularning 33% ni 9 yoshdan katta bolalar tashkil qiladi.

Biz ham shu ma'lumotlar asosida quyidagi kichik bir tatqiqot ishini amalga oshirdik.

Maqsad. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti klinikasi ko'z kasalliklari bo'limida davolangan bemorlarning nozologik tuzilishi taxlili.

Tekshiruv materiallari va usuli. 2020-yil mart oyidan 2021-yil yanvar oyiga qadar Toshkent pediatriya tibbiyot instituti klinikasi ko'z kasalliklari bo'limida Toshkent viloyatidan murojat qilgan bemorlarning kasallik tarixining retrospektiv taxlili.

Tekshiruv natijalari va uning muhokamasi. Mazkur davrda davolangan bemorlar umumiy soni 257 ta bo'lib, ular yoshi bo'yicha Butun Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining tavsiyasiga ko'ra 5ta guruhga ajratildi. [6]:

- I. 0-1 yoshgacha bo'lgan bemorlar soni 16ta (6,22%)
- II. 1-3 yoshgacha bo'lgan bemorlar soni 58 ta (22,56%)
- III. 3-6 yoshgacha bo'lgan bemorlar soni 74ta (27,26%)
- IV. 6-12 yoshgacha bo'lgan bemorlar soni 57 ta (22,18%)
- V. 12-18 yoshgacha bo'lgan bemorlar soni 55 ta (21,4%).

Kasalliklar tarixi taxlili shuni ko'rsatdiki, 257 ta bemordan 129 tasi (50,2%) jarohat tufayli murojaat etgan bemorlar bo'lib, ular orasida 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bemorlar eng ko'pni

tashkil etsa (40 ta -31%), 1 yoshgacha bo`lgan bemorlarda esa bunday jarohatlar uchramaydi. Bu xolatni quyidagicha izohlashimiz mumkin: 1 yoshgacha bo`lgan bolalar ko`proq ota-onasining doimiy nazoratida bo`lsa, 3yoshdan 6yoshgacha bo`lgan bolalar jismoniy va ruhiy jihatdan tez o`sadi, tinib –tinchimas va judayam qiziquvchan bo`ladi, ozgina e`tiborsizlik ham yuqoridagi og`ir oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

12,84% (33 bemor) xollarda katarakta tufayli murojat qilingan bo`lib, ushbu kasallik asosan 1yoshdan 3 yoshgacha bo`lgan bemorlar orasida aniqlanib, ushbu ko`rsatkich 33,33%ni tashkil etgan bo`lsa, 1 yoshgacha bo`lgan bemorlar orasida 6% ni tashkil etdi.

Tug`ma glaukoma tashxisi bilan davolangan bemorlar soni 20ta (7,78%) bo`lib, shundan 1yoshdan 3 yoshgacha bo`lgan bolalar asosiy o`rinni egallasa (10ta -50%), 3 yoshdan 6 yoshgacha bo`lgan bemorlar orasida 5% xollarda aniqlandi.

Katarakta va glaukoma bilan bunday holatda bizga murojat qilinishining asosiy sababi ota-onalarning beparvoligi va erta tashxis qo`yishning kechikishi deb qarashimiz mumkin;

Yotqizilgan bemorlarning 29 tasi (11,28%) birlamchi hamkor g`ilaylik tufayli murojat qilgan bemorlardir, shulardan 5 dan 12 yoshgacha bo`lgan bemorlar asosiy qismni egallasa (25ta -86,2%), 5 yoshgacha bo`lgan bemorlar yotqizilmagan. 5 yoshgacha bo`lgan bemorlarda aniqlanganida ular turar joy okulisti nazorati ostida turmog`i kerak.

Bu kasalliklardan tashqari yana 46 ta bemor (17,9%) boshqa kasalliklar (keratitlar, to`r parda ko`chishi, ko`z yosh xaltasi flegmonasi, dakriosistit, yuqori qovoq ptozi) tufayli yotqizilgan bemorlardir.

Xulosa. Toshkent viloyatidan 2020-yil mart oyidan 2021-yil yanvar oyiga qadar 257 ta bemor murojat qilgan. Ularning asosiy qismini ko`z jarohatlari (50,2%), katarakta (12,84%), g`ilaylik (11,28%) va glaucoma (7,78%) tashkil qildi.

Adabiyotlar ro`yxati.

1. Е.А. Егоров. Офтальмология. Учебник для вузов / Издательство: Гэотар- Медиа, 2010 - 242 стр. ил. 218-234 bet
2. Бузруков Б.Т., Левченко О.Г., Хамроева Ю.А. «ПЕРВИЧНАЯ ГЛАУКОМА» (Современные аспекты этиопатогенеза, клиники, диагностики и лечения) . 5-bet
3. Е.А. Егоров. Офтальмология. Учебник для вузов / Издательство: Гэотар- Медиа, 2010 - 242 стр. ил. 142-bet.
4. Заболевания глазной поверхности в детской офтальмологии: учебное пособие. — М., ФМБА России, 2019. — 28 с.
5. Офтальмология : национальное руководство/ под ред. С.Э. Авитисова, Е.А Егорова , Л.К. Мошетовой, В.В.Нерова , Х.П. Тахчители. – М. :ГЭОТАР 2008. -994 с. 23-24 bet
6. Е.Е. Сомова. Избранные разделы детской клинической офтальмологии/ 2016.-308с.:ил. 32-33 bet